


• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI •

DUNYO MAMLAKATLARI





„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

DUNYO MAMLAKATLARI



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 910.4(031):087.5

KBK 26.8g

D 88

Tuzuvchi

Oybek Xaydarov

Dunyoda turli xil mamlakatlar, shahar-u qishloqlar mavjud. Har biri o'ziga yarasha go'zal, sirli, qiziqarli. Ular haqida qancha ko'p bilganingiz sari ko'nglingizda sayohat ishtiyoqi kuchayib boraveradi.

Mazkur kitob bahonasida siz dunyo bo'ylab sayohat qiliish imkoniga ega bo'lasiz. Kitobda jahoning eng ko'zga ko'ringan mamlakatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. O'ylaymizki, bu sayohat davomida ko'p narsalarni bilib olasiz.



Abdullo Ch'iyoy nomidagi
vilyozat AKBN
INV № 2022/7-122

ISBN 978-9943-5883-2-5



Toshevch
2202

© O. Xaydarov (tuz.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.




ЧАСТЬ ПЕРВАЯ

MUNDARIJA

OSIYO QIT'ASI

O'zbekiston	8
Qozog'iston.....	10
Qirg'iziston.....	12
Tojikiston	14
Turkmaniston	16
Hindiston.....	18
Turkiya.....	20
Eron	22
Birlashgan Arab Amirliklari	24
Saudiya Arabistoni	26
Malayziya	28
Xitoy	30
Janubiy Koreya	32
Yaponiya.....	34




YEVROPA QIT'ASI

Italiya	38
Shveytsariya	40
Fransiya	43
Germaniya.....	44
Buyuk Britaniya	46
Ispaniya	48
Portugaliya.....	50
Gretsiya	52
Rossiya	54

AMERIKA QIT'ASI

Kanada	58
AQSH	60
Meksika.....	62
Argentina	64
Braziliya.....	66
Chili	68



AFRIKA QIT'ASI

Misr	72
JAR	74
Marokash	76
Madagaskar	78
Jazoir.....	80
Nigeriya	82
Liviya	84

AVSTRALIYA VA OKEANIYA

Avstraliya	88
Yangi Zelandiya	90
Fiji.....	92

OSIYO QIT'ASI

Maydoni:

44 mln 579 ming km².

Aholisi:

4 mlrd 668 mln 707 ming 210 kishi.

Davlatlar soni:

59 ta.

Eng uzun daryosi:

Yanszi, uzunligi 6300 km.

Eng katta oroli:


Kalmantan. Maydoni 743 ming 330 km².

Eng baland cho'qqisi:

Jomolungma (Everest). Balandligi 8848,86 m.

ENG KATTA QIT'A

Osiyo Yer maydoni bo'yicha dunyodagi eng katta, aholisi eng ko'p qit'adir. Sayyoramizdag'i barcha okeanlar bilan chegaradosh. Dunyodagi eng baland tog' cho'qqisi shu qit'ada joylashgan. Dunyodagi eng chuqur ko'l (Baykal 1620 m) ham Osiyo hududidadir.



OSIYOGA QO'SHILIB OLGAN HUDUD

Hindiston yarimoroli qadim-qadim paytlarda Osiyo tarkibida bo'lmagan. O'sha zamонларда yarimorol Gondvana quruqligining Afrika qismi tarkibida bo'lган. Yillar o'tib Hindiston Gondvanadan ajralib, Osiyo tomon harakatlana boshlagan va qit'aning janubiga kelib urilgan. Natiжada, hozirgi Himolay tog'lari o'sib chiqqan. Dunyodagi eng baland mazkur tog' tizmalarida balandligi 8000 m dan ortiq bo'lган 11 ta cho'qqi mavjud.



Eng past yeri – O'lik dengiz. Okean sathidan 395 m pastda joylashgan. O'lik dengiz nafaqat Osiyoning, balki butun Yer sayyorasining quruqligidi eng past nuqtasi sanaladi.

Qit'aning eng baland nuqtasi Everest dunyoda ham bu borada birinchi o'rinda turadi. Xitoy va Nepal chegarasida joylashgan bu ulkan cho'qqining dengiz sathidan balandligi 8848 m ni tashkil etadi.

O'ZBEKISTON

Joylashgan o'rni:

O'rta Osiyo.

Maydoni:

448 ming 978 km².

Aholisi:

34 mln 558 ming 913 kishi.

Poytaxti:

Toshkent (aholisi 2,6 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, o'zbeklar (83,8%).

Davlat tili:

o'zbek tili.

Dini:


asosan, islom (bu dingga e'tiqod qiluvchilar 93%).

Pul birligi:

so'm.




Milliy davlatchiligimiz tarixi qadim-qadim zamonalarga borib taqaladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bundan 2700 yil oldin yurtimiz joylashgan hududlarda qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'diyona davlatlari tashkil topgan. Ilk shaharlarimizning paydo bo'lishi ham aynan shu davarga borib taqaladi. Hozirgi Samarqand, Termiz, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining yoshi 2700 yildan kam emasligi aniqlangan.



O'RTA OSIYODAGI AHOLISI ENG KO'P DAVLAT

O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha dunyoda 56, aholisi bo'yicha 41-o'rinda turadi. O'rtta Osiyoda esa aholisi eng ko'p davlat hisoblanadi.



QOZOG'ISTON

Joylashgan o'rni:

O'rta Osiyo, qisman Janubbi-sharqiy Yevropa.

Maydoni:

2 mln 724 ming 900 km².

Aholisi:

18 mln 877 ming 128 kishi.

Poytaxti:

Nur-Sulton (aholisi 1184 469 dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, qozoqlar (67,5%), ruslar (20%), o'zbeklar (3%).

Davlat tili:


qozoq tili.

Dini:

islom (70%), shuningdek, xristian (26%).

Pul birligi:

tenge.




O'RTA OSIYODAGI ENG KATTA MAMLAKAT

Qozog'iston maydoni bo'yicha dunyodagi eng katta davlatlardan biri bo'lib, 9-o'rinni egallaydi. O'rta Osiyoda esa bu borada birinchi. Mamlakat hududi Buyuk Britaniya-dek rivojlangan davlatdan ham 11 baravar katta.



BUG'DOY YETISHTIRUVCHI DAVLAT

Qozog'iston Respublikasi o'zining oliy sifat uni bilan jahonga mashhurdir. Mamlakat bug'doy yetishtirish bo'yicha dunyoda kuchli beshlikka kiradi. Lekin Qozog'istonning dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqsa olmasligi bug'doy eksportiga katta to'siq bo'lmoqda.



QIRG'IZISTON

Joylashgan o'rni:

O'rta Osiyo.

Maydoni:

199 ming 951 km².

Aholisi:

6 mln 523 ming 529 kishi.

Poytaxti:

Bishkek (aholisi 1,1 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, qirg'izlar (73,3%),
o'zbeklar (14,6%).

Davlat tili:


qirg'iz tili.

Dini:

islom (82,7%), xristian (16%).


Pul birligi:

Qirg'iziston so'mi.




TAROVATLI MAMLAKAT

Qirg'iziston tabiatini nihoyatda go'zal. Hududining 94 foizi dengiz sathidan 1000 m dan ham yuqori balandlikni egalaydi. Maydonining yarmi esa 3000–4 000 m balandlikda joylashgan.



SAYYOHLAR UCHUN GO'ZAL KO'L

Qirg'izistondagi eng katta ko'l Issiqko'l bo'lib, maydoni 6 326 km² ni tashkil etadi. Mazkur ko'l o'zining tarovati bilan ajralib turadi. Issiqko'l sohillari dam olish uchun juda qulay. Shu maqsadda har yili bu yer-ga millionlab sayyoohlар keladi.



TOJIKISTON

Joylashgan o'rni:

O'rta Osiyo.

Maydoni:

151 ming 100 km².

Aholisi:

9 mln 537 ming 645 kishi.

Poytaxti:

Dushanbe (aholisi 800 ming

dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, tojiklar (85%), shuning-

dek, o'zbeklar ham ko'pchilik-

ni tashkil qiladi.

Davlat tili:




tojik tili.

Dini:

islom (80%).


Pul birligi:

Tojikiston somoni.





DARYO VA KO'LLAR MAMLAKATI

Tojikiston O'rta Osiyoning eng kichik davlati bo'lishiga qaramasdan, mamlakatda 900 dan ortiq daryo va 920 ta katta-kichik ko'l mavjud.



TOG'LAR BAG'RIDAGI DAVLAT

Tojikiston ham tog'lar bag'rida joylashgan davlatlardan biri hisoblanadi. Hududining 90 foizini tog'lar tashkil etadi. Mamlakat dunyodagi chuchuk suv zaxiralari eng ko'p beshta davlatdan biri.



TURKMENISTON

Joylashgan o'rni:

O'rta Osiyo.

Maydoni:

491 ming 200 km².

Aholisi:

6,1 mln kishi.

Poytaxti:

Ashxobod (aholisi 900 ming-dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, turkmanlar (85%), shuningdek, o'zbeklar (10%).

Davlat tili:




turkman tili.

Dini:

islom (89–90%), shuningdek, xristian (9%).

Pul birligi:

manat.



ZOTDOR OTLAR VATANI


Turkmaniston butun dunyoga o'zining Ahaltaka zotli otlari bilan ma'lum va mashhur. Hatto mamlakat gerbiga ham mazkur otlarning tasviri tushirilgan.

OSIYODAGI ENG KATTA CHO'L

Osiyodagi eng katta qumli cho 'i Turkmanistonda joylashgan bo'lib, mamlakat hududining 71,4 foizini egallagan. Qoraqum sahrosining maydoni naqd 350 ming km² ni tashkil etadi. Bu hudud Malayziya davlati maydonidan ham katta demakdir.



Mamlakatda 1971-yildan beri yonib turuvchi gaz chugurligi mavjud. Uning diametri 60 m ni, chuqurligi 20 m ni tashkil etadi. Bu hudud „Do'zax darvozasi“ deb nomlanadi.



HINDISTON

Joylashgan o'rni:

Janubiy Osiyo.

Maydoni:

3 mln 287 ming 300 km².

Aholisi:

1,4 mldr ga yaqin.

Poytaxti:

Yangi Dehli (aholisi 11 mln ga yaqin).

Milliy tarkibi:

hindlar (40%), bengal, telugu-lar, panjobliklar, tamillar.

Davlat tili:


hind va ingliz tillari.

Dini:

induizm (80%), islom (13%).

Pul birligi:

Hind rupiysi.



ENG KO'P VEGETARIANLAR


Dunyodagi eng ko'p vegetarianlar (go'sht iste'mol qilmaydigan odamlar) Hindistonda yashaydi. Mamlakat aholisining 40 foizi go'sht yemas ekan.

FILLAR DIYORI

Hindiston o'zining bahaybat fillari bilan dong taratgan. Ma-halliy aholi bu jonivorlarni ulkan tishlari uchun ko'p ovlamoqda. Buning oldini olish uchun hukumat aholiga fil ovlashni taqiqlab qo'ygan.



Hindlar Gang daryosini mu-qaddas sanaydilar. Daryoning uzunligi 2700 km ni, havzasining maydoni esa 2 mln 55 ming km² ni tashkil etadi.



TURKIYA

Joylashgan o'rni:

Janubi-g'arbiy Osiyo va Janubiy Yevropa.

Maydoni:

783 ming 600 km².

Aholisi:

85 mln kishi.

Poytaxti:

Anqara (aholisi 5,4 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

turklar (75%), kurdlar (15%).

Davlat tili:



turk tili.

Dini:

islom (96,1%).

Pul birligi:

turk lirasasi.





SAYOHATBOP SHAHAR

Antaliya Turkiyadagi eng ko'p sayyoh tashrif buyuradi-gan shahar sanaladi. 2018-yilning dastlabki 9 oyi davomida Antaliyaga 12,5 mln turist kelgan.

DUNYO MO'JIZALARI

Bilasizmi, dunyodagi yetti mo'jizaning naqd ikkitasi Turkiyada joylashgan. Bular – Artemida ibodatxonasi va Golikarnas maqbarasi.



Turkiya kino sanoati mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha Osiyoda yetakchi sanaladi. Jahonda esa AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

ERON

Joylashgan o'rni:

Janubi-g'arbiy Osiyo.

Maydoni:

1 mln 648 200 km².

Aholisi:

84 mln 743 ming kishi.

Poytaxti:

Tehron (aholisi 13,3 mln).

Milliy tarkibi:

asosan, forslar (60%), ozarbayjon, kurd, arab, turkman, armanlar.

Davlat tili:

fors tili.

Dini:



islom (99,4%).

Pul birligi:

Eron riali.

QADIMIY POYTAXT


Mamlakat poytaxti Tehron shahri dunyoning eng qadimiy shaharlardan bo'lib, 1786-yil 12-martdan buyon poytaxt bo'lib kelmoqda. Shaharning poytaxtg'a aylanishi shoh Muhammadxon nomi bilan bog'liq.






QADIMIY DAVLAT

Eron juda boy tarixga ega bo'lgan dunyoning eng qadimiy davlatlaridan hisoblanadi. Bu yerda bundan 5000 yil oldin ilk davlat tashkil topgan.



Eronda 2500 yildan beri jahonga mashhur fors gilamlari ishlab chiqariladi. Bu gilamlar o'zining sifati, chiroyi bilan ajralib turadi. Bu mashhur gilamlar xorijda ham xaridorgir hisoblanadi.



BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKHLARI

Joylashgan o'rni:

Arabiston yarimorolining sharqiy qismi.

Maydoni:

83 600 km².

Aholisi: 10 mln ga yaqin.

Poytaxti:

Abu-Dabi (aholisi 1,5 mln ga yaqin).

Milliy tarkibi:

asosan, arablar (48,1%).

Davlat tili:

arab tili.

Dini:



islom (bu dinga e'tiqod qiluv-chilar 75%).

Pul birligi:

Dirham.

ENG BALAND BINO


BAAning eng katta va dunyoga mashhur shahri Dubayda 1991-yilda bittagina osmono'par bino bo'lgan ekan. Hozirgi kunda esa ularning soni 400 tani tashkil etadi. Balandligi 828 m bo'lgan dunyodagi eng baland bino – „Burj-Xalifa“ ham shu shaharda joylashgan.



AHOLISI ENG TEZ O'SAYOTGAN DAVLAT

BAA aholisi dunyodagi eng tez o'sayotgan mamlakat hisoblanadi. Hozirda 1986-yilga nisbatan aholisi 6,5 baravarga ko'paygan. Ya'ni 1,5 mln dan 10 mln ga yetgan.

Qiyoslash uchun aytish mumkinki, shu davrlar oralig'i-da Yaponiya aholisi bor-yo'g'i 0,04 baravarga ko'paygan.



Dunyodagi eng mashhur, palma ko'rinishidagi sun'iy orol Dubay shahri yonida qurilgan. Bu orol insoniyatning qurilish sohasidagi eng katta yutug'i hisoblanadi. Yana bir sun'iy orol jahon xaritasi ko'rinishida Palma oroli yonida qurilgan.

SAUDIYA ARABISTONI

Joylashgan o'rni:

Janubi-g'arbiy Osiyo, Arabiston yarimoroli.

Maydoni:

2 mln 149 690 km².

Aholisi:

35,2 mln kishi.

Poytaxti:

Ar-Riyod (aholisi 7,7 mln).

Milliy tarkibi:

asosan, arablar.

Davlat tili:


arab tili.

Dini:

islom.

Pul birligi:


Saudiya riali.



ENG KATTA CHO'L LI HUDDUD

Saudiya Arabistonи hududining katta qismini cho'llar, pasttekisliklar egallagan. Iqlimi o'ta issiq. Mamlakatdagi eng katta cho'l Nefud cho'li bo'lib, maydoni 674000 km². Mazkur cho'l hududi butun bir Afg'oniston davlatidan ham katta hisoblanadi.





NEFTGA BOY MAMLAKAT

Saudiya Arabistonining dunyoda neft zaxiralarining ko'pligi bo'yicha ikkinchi va uni qazib olish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Mamlakatda mavjud neft zaxiralari naqd 264 mldr barrel (45 mldr tonna)ga teng. Jahon neftining katta qismini beradigan mazkur mamlakatda yiliga 583 mln tonna neft qazib olinadi.



Saudiya Arabistonida deyarli hech qanday jamoat transporti yo'q, mahalliy aholining aksariyati o'z avtomobilari yoki taksilarda yuradi.

MALAYZIYA

Joylashgan o'rni:

Janubi-shraqiy Osiyo, Malakka yarimorolining janubi hamda Kalimantan orolining shimoli.

Maydoni:

329,8 ming km².

Aholisi:

32 mln 700 ming kishi.

Poytaxti:

Kuala-Lumpur (aholisi 7,8 mln atrofida).

Milliy tarkibi:

malaylar (57%), xitoylar (43%).

Davlat tili:


malay tili.

Dini:

asosan, islom (61,3%), shuningdek, buddizm (19,8%), xristian (9,2%), induizm (6,3%).

Pul birligi:

Malayziya dollari.




ENG KATTA GUL

Dunyoning eng katta guli bo'l-gan raffleziya Malayziyaning eng mashhur o'simligi hisoblanadi va uning diametri bir metrdan kattadir. U gullash davrida o'zidan juda ham qo'lansa hid taratishi tufayli „jasad gul“ nomini olgan.



PALEOLIT DAVRIDAN HOZIRGACHA

Malayziya hududida qadim-qadimdan aholi yashab kelgan. Aniqrog'i, ilk Paleolit davridan buyon aholi yashab keladi. Miloddan avvalgi 3-1-mingyilliklarda Malakka yarimoroliga Xitoyning janubi-g'arbidan avstronez qabilalari ko'chib borgan.



XITOY

Joylashgan o'rni:

Markaziy va Sharqiy Osiyo.

Maydoni:

9,6 mln km².

Aholisi:

1 mlrd 443 mln 236 ming

kishi.

Poytaxti:

Pekin (aholisi 21,7 mln).

Milliy tarkibi:

93,3 foizi xitoylar (xanlar).

Davlat tili:



xitoy tili.

Dini:

asosan, konfutsiylik, shuning-dek, buddizm, xristian, islom.


Pul birligi:

Xitoy yuanı.



DUNYODAGI ENG KO'P XALQ

Dunyoda son jihatidan eng ko'p xalq xitoy va eng ko'p aholi gaplashadigan til bu – xitoy tilidir. Bugungi kunda dunyoda 1 mlrd 310 mln xitoy yashaydi va shu tilda so'zlashadi. Shuningdek, 6 ta xalqaro tildan biri aynan xitoy tilidir.





BUYUK XITOY DEVORI

Sariq dengizdagi Ly-odun qo'ltig'idan boshlanib, g'arbg'a tomon ketgan Buyuk Xitoy devorining uzunligi qariyb 4000 km ga yetadi.

Devorning balandligi 12 m, ikki qavatli, ayrim joylarda uch qavatli bino balandligidan oshadi.

Devorning past qismi, poydevori kengligi – 6,5 m, ustki sathi kengligi 5–5,5 m. U nihoyatda qalin bo'lganidan, ustidan jang aravalari, qo'shinlar, hatto har qatorda 5–6 tadan otliq askarlar ham saf tortib bemalol harakat qilishi mumkin bo'lgan.

Aytishlaricha, Buyuk Xitoy devori kosmik kemadan ko'rinadigan Yer yuzidagi ikki inshootdan biri ekan.



JANUBIY KOREYA

Joylashgan o'rni:

Sharqiy Osiyo, Koreya yarim-orolining janubiy qismi.

Maydoni:

99,4 ming km².

Aholisi:

51,3 mln kishi.

Poytaxti:

Seul (aholisi 11,5 mln).

Milliy tarkibi:

koreyslar (99%).

Davlat tili:

koreys tili.

Dini:


turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar va hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydiganlar (46%), xristian (29,3%), buddizm (22,8%).

Pul birligi:

von.


TONGI SOKIN MAMLAKAT

Koreyani „Tongi sokin mamlakat“ deb atashadi. Tonggi Janubiy Koreya, haqiqatan, nihoyatda sokin va juda tarovatli bo'lar ekan.



FONUSLAR FESTIVALI

Janubiy Koreyada 3 ta bayram katta qiziqish bilan kutib olinadi. Bular – Yangi yil bayrami, Buddanining tug'ilgan kuni va Kuz festivalidir. Aprel oyining oxirida va may oyining boshida Buddanining tug'ilgan kuni nishonlanadi. Odamlar bir hafta davomida dam olishadi va butun mamlakat bo'ylab fonuslar festivali o'tkaziladi.



Koreya Respublikasi maydonining katta qismini juda ham xushmanzara bo'lgan tog'lar tashkil etadi.

YAPONIYA

Joylashgan o'rni:

Sharqiy Osiyodagi ko'plab orollar.

Maydoni:

377,9 ming km².

Aholisi:

126,5 mln kishi.

Poytaxti:

Tokio (aholisi 38,3 mln).

Milliy tarkibi:

yaponlar (98%).

Davlat tili:

yapon tili.

Dini:

asosan, sintoizm (79,2 %), shuningdek, buddizm.

Pul birligi:

yapon iyenasi.



IMPERATOR HUKMRONLIGI

Yaponiya paydo bo'lganidan to hozirgi kunga qadar imperator avlodlari tomonidan boshqarib kelinadigan yagona mamlakatdir. Yapon davlatchilik tarixida imperator avlodlari uzlusiz hukmronlik qilib kelgan. Imperatorlik boshqaruvi miloddan avvalgi 660-yildan beri mavjud.



RIVOJLANISHNING O'ZIGA XOS YO'L

Yaponiya jahoning eng rivojlangan „Kuchli yettiligi“-ga kiruvchi mamlakatlardan biridir. Mazkur davlatda tabiiy resurslar deyarli bo'lmasa-da, ta'lim-tarbiya, maktablarga katta e'tibor qaratgani tufayli hozirgi darajaga ko'tarila ol-gan.



Yaponiyada 100 yoshdan oshgan 50 000 dan ziyod kishi yashaydi. Bu esa mamlakatni uzoq umr ko'radiganlar yurtiga aylantirdi.

YEVROPA QIT'ASI

Maydoni:

10 mln 180 ming km².

Aholisi:

748 mln kishi.

Davlatlar soni:

50 ta.

Eng uzun daryosi:

Volga (3530 km).

Eng katta oroli:


Britaniya (maydoni 229,9 ming km²).

Eng baland tog'i:

Elbrus (balandligi 6642 m).

IKKI QIT'A DAVLATLARI

Ham Osiyoda, ham Yevropada joylashgan bir nechta davlatlar borligidan xabaringiz bormi? Rossiya, Qozog'iston va Turkiya mazkur ikki qit'ada joylashgani bilan e'tiborni tortadi. Rossiya maydonining 24 foizi, Qozog'istonning 14 foizi, Turkiyaning 3 foizi Yevropa hududi hisoblanadi.





NISBATAN KICHIK QIT'A

Yevropa maydoni jihatidan Rossiyadan kichkina, Kanada va Xitoy bilan deyarli teng qit'adir. Ammo eng rivojlangan davlatlar joylashgan qit'alardan biri hisoblanadi.



Bilasizmi, Dunay daryosi oz emas, ko'p emas, naqd 10 ta davlat huddidan oqib o'tar ekan. Daryoning uzunligi 2860 km ni tashkil etadi. U Yevropaning eng asosiy „qon tomir“laridan biridir.

ITALIYA

Joylashgan o'rni:

Janubiy Yevropa.

Maydoni:

301 ming 300 km².

Aholisi:

60 mln 700 ming kishi.

Poytaxti:

Rim (aholisi 2,9 mln).

Milliy tarkibi:

asosan, italyanlar 94%).

Davlat tili:

italyan tili.

Dini:

xristian (96,8%).

Pul birligi:


Italian lirasi.



VENETSIYA

Italiyaning Venetsiyasi Yevropadagi eng go'zal va sayohatbop shaharlardan biridir. Shaharga har yili turli mamlakatlardan 20 mln sayyoh tashrif buyuradi.

Mamlakatning dunyoga mashhur avtomobilari sayohlarning jon-u dili. Mazkur mamlakatda „Lamborghini“, „Ferrari“, „Maseratti“ kabi ko'plab qimmatbaho avtomobillar ishlab chiqariladi.



QADIMGI POYTAXT

Italiya Yevropaning eng qadimgi davlatlaridan biri hisoblanadi. Poytaxt bo'lmish Rim shahri miloddan avvalgi 753-yilda tashkil topgan bo'lib, 2800 yillik tarixga ega. O'z vaqtida Rim imperiyasi dunyoning eng kuchli davlati hisoblangan.



Rimdagi Kolizey 50000 kishini o'z bag'riga sig'dira olgan. Kolizey 4 qavatli bo'lib, har birida 80 ta ravoq bo'lган.

SHVEYTSARIYA

Joylashgan o'rni:

Markaziy Yevropa.

Maydoni:

41 ming 300 km².

Aholisi:

8,7 mln kishi.

Poytaxti:

Bern (aholisi 140 ming).

Milliy tarkibi:

nemislar (63,7%), fransuzlar (19,2%).

Davlat tili:

nemis, italyan va fransuz.

Dini:

xristian (76%).

Pul birligi:

Shveytsariya franki.




TOG'LI MAMLAKAT

Shveytsariya dunyodagi eng ko'p tog'li mamlakatlaridan biridir. Mamlakatda balandligi 3000 m dan ortiq bo'lgan 208 ta, 4000 m dan ortiq bo'lgan 24 ta tog' mavjud. Ular Alp tog' tizmasida joylashgan bo'lib, o'zining tarovati, musaffo havosi bilan sayyoohlarni o'ziga jalb etadi. Shuningdek, bu yerlar tog' chang'isi bo'yicha musobaqalar o'tkazish uchun ham juda qulay.

BETARAF DAVLAT

Shveytsariyada 1815-yilda betaraflik, ya'ni hech qanday urushlarga aralashmaslik to'g'risida qonun qabul qilingan. Shuningdek, mamlakat doimiy qo'shinga ham ega emas.



Bilasizmi, Shveytsariya banklari nimaga bunchalik mashhur? Sababi mahalliy aholiga bankka qo'ygan omonati uchun 35% soliq joriy qilingan bo'lsa-da, chet el fuqarolariga hech qanday soliq belgilanmagan.



FRANSIYA

Joylashgan o'rni:

G'arbiy Yevropa.

Maydoni:

547,557 km².

Aholisi:

65,4 mln.

Poytaxti:

Parij (aholisi 2 mln 140 ming).

Milliy tarkibi:

fransuzlar (80%).

Davlat tili:


fransuz tili.

Dini:

xristian (43%), boshqa din vakil-lari (45%).

Pul birligi:

fransuz franki.



ENG MASHHUR MUZEY

Parijdagi Luvr dunyodagi eng ko'p tomoshabin tashrif buyuradigan muzeydir. Har yili bu yerga 8,3 mln kishi kelib-ketadi. Mazkur muzey 1793-yilda ochilgan.



EYFEL MINORASI

Dunyoga mashhur Eyfel minorasi 1889-yil 30-martda qurib bitkazilgan. Balandligi 324 m ni tashkil etadi. Minoran Gustavo Eyfel sharafiga shunday nomlangan.



Parijdagagi yana bir g'aro-yib arxitektura inshooti – balandligi 50 metrli Triumfal arka hisoblanadi. Napoleon Bona-part qurdirgan bu inshoot eng e'tiborli joylardan biridir.



GERMANIYA

Joylashgan o'rni:

Markaziy Yevropa.

Maydoni:

357,4 ming km².

Aholisi:

84 mln kishi.

Poytaxti:

Berlin (aholisi 3,6 mln).

Milliy tarkibi:

nemislar (92%).

Davlat tili:


nemis tili.

Dini:

xristian (aholining katta qismi
shu dinda).

Pul birligi:

nemis markasi.



KITOB CHOP ETISH

Dunyodagi birinchi bosma kitob Germaniyada chiqarilgan. Bunga logann Gutenbergning 1445-yilda kitob bo'sish dastgohini yaratgani omil bo'lgan. 1663-yilda esa birinchi jurnal ham chop etilgan. Hozirgi kunda bu mamlakat kitob nashr qilish bo'yicha ham birinchi o'rinda.

FRANKFURT AEROPORTI

Frankfurt shahridagi Frankfurt-Mayn aeroporti Yevropaning eng katta havo qo'nalg'alaridan biridir. Aeroport yiliga 58 mln mijozga xizmat ko'rsatadi.



Germaniya o'zining sifatli avtomobilari bilan nom qozongan. Volkswagen, Audi, Porsche, Mercedes-Benz, Opel, BMW kompaniyalari nomini eshitmagan inson bo'lmasa kerak.



BUYUK BRITANIYA

Joylashgan o'rni:

Britaniya orollari (G'arbiy Yevropa).

Maydoni:

243,8 ming km².

Aholisi:

68,1 mln kishi.

Poytaxti:

London (aholisi 9 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, inglizlar (80%).

Davlat tilli:

ingliz tili.

Dini:

xristian.


Pul birligi:

funt-sterling.

FUTBOLNING VATANI

Dunyoda sevib o'ynaladigan ko'plab sport turlari Buyuk Britaniyada kashf qilingan. Ulardan eng mashhurlari – futbol, regbi va suv polosi hisoblanadi. Bular ichida jahon bo'ylab eng ommalashgani – millionlar o'yini futboldir.





TAUER KO'PRIGI

Bilasizmi, Londondagi mashhur Tauer ko'prigiga u qurilgandan buyon 37,4 mln sayyoh tashrif buyurgan. 1894-yil 30-iyunda qurib bitkazilgan ushbu ko'priksi ko'rish uchun 2018-yilda rekord darajada, ya'ni 865 ming kishi kelgan.



Britaniyaliklar choyxo'r xalqligi bilan ma'lum-u mashhur. Ular har kuni 165 mln chashka choy ichadilar. Bu ko'satkich AQSHga nisbatan 20 barobar ko'p.



ISPA NIYA

Joylashgan o'rni:

Janubi-g'arbiy Yevropa,
Pireney yarimoroli.

Maydoni:

506 ming km².

Aholisi:

46,8 mln kishi.

Poytaxti:

Madrid (aholisi 3,2 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, ispanlar (70%),
katalonlar (15%).

Davlat tili:

ispan tili.

Dini:


xristian (75%).

Pul birligi:

yevro.

KORRIDA

Ispaniya o'zining korrida nomli tomoshasi bilan dunyoga mashhur. Bu tomoshada katta-katta buqalar ishtiroy etadi. Qo'rqmas yigitlar buqani yaltiroq mato bilan chalg'itib, nayza bilan turtib tomosha ko'rsatadilar. Korrida XI asrdan buyon ma'lum. Sirk tomoshasi sifatida esa XVIII asrda shakllangan.



TARIXIY YODGORLIKLER

Madridning tarixiy joylarini ko'rmoqchi bo'lsangiz, Puerto del solga kirib o'ting. Bu yerda shaharning eng asosiy tarixiy obidalari joylashgan. Inshoot yarim dumaloq shaklda qurilgan.



Ispaniya Yevropaning tog'li mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Uning poytaxti Madrid shahri esa Yevropa hududiga kiruvchi eng „baland“ shahar sanaladi. Shuningdek, Yevropa qit'asidagi yagona cho'l bo'l-mish Tabernas ham Ispaniya-da joylashgan.



PORTUGALIYA

Joylashgan o'rni:

Yevropaning janubi-g'arbiy tomoni, Pireney yarimoroli.

Maydoni:

92,2 ming km².

Aholisi:

10,3 mln kishi.

Poytaxti:

Lissabon (aholisi 500 mingdan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, portugallar (87%).

Davlat tili:

portugal tili.

Dini:

xristian (90%).

Pul birligi:

yevro.



PORTUGAL BRAZILIYALIKLAR

Braziliyaning portugallar tomonidan kashf etilishi 1500-yilga to'g'ri keladi. Portugal dengiz sayyohi Kabral mazkur mamlakatga shu yili kelib tushadi. Shuningdek, Hindistonga Atlantika okeani orqali boriladigan dengiz yo'llini ochgan Vasko da Gama ham portugal millatiga mansub bo'lgan.



SAYYOHLAR SHAHRI

Portugaliya poytaxti Lissabon dunyoning 10 ta eng sayohat-bop shaharlari ro'yxatidan joy olgan. Shaharning do'stona muhiti va diqqatga sazovor joylari sayyoohlarni o'ziga jalb etadi.



Lissabon shahri xaritada dengiz bo'yida joylashgan-dek ko'rinsa-da, aslida, Atlantika okeanidan 15 km ichkarida ekan. Qiziqarlisi, shahar 7 ta tepalik o'rtaida qad rostlagan.



GRETSIYA

Joylashgan o'rni:

Janubiy Yevropa, Bolqon yarimorolgi.

Maydoni:

131 ming 990 km².

Aholisi:

10,8 mln kishi.

Poytaxti:

Afina (aholisi 3,2 mln).

Milliy tarkibi:

asosan, greklar (90%).

Davlat tili:

grek tili.

Dini:

xristianlikning pravoslav oqimi (98 %).

Pul birligi:

yevro.

YETTI MO'JIZANING BIRI

Gretsiyaning Rodos orolidagi yunonlarning quyosh ma'budi Gelios haykali dunyoning 7 mo'jizasidan biri hisoblanadi. Haykal, taxminan, miloddan avvalgi 292–280-yillarda haykaltarosh Haros tomonidan misdan ishlangan. Vaqtlar o'tishi bilan haykal buzilib ketgan.





QADIMIY DARAXT

Gretsiya zaytun yetishtirish bo'yicha dunyo yetakchilaridan biri sanaladi. Aytishlaricha, XII asrda ekilgan zaytun daraxti hali ham hosil berayotgan ekan.



Mamlakat poytaxti Afina dunyoning eng qadimgi shahlaridan biridir. Gretsiyaning janubi-sharqidagi bu shaharga miloddan avvalgi X–IX asrlarda asos solingan.



ROSSIYA

Joylashgan o'rni:

Shimoliy Osiyo va Sharqiy Yevropa.

Maydoni:

17 mln 125 ming 200 km².

Aholisi:

146 mln kishi.

Poytaxti:

Moskva (aholisi 12,6 mln).

Milliy tarkibi:

asosan, ruslar (80,9%).

Davlat tili:

rus tili.

Dini:

xristian (80%), islom (10%).

Pul birligi:

Rossiya rubli.



DUNYODAGI ENG CHUQUR KO'L

Bilasizmi, dunyodagi eng chuqr ko'l – Baykal Rossiya hududida joylashgan. Uning eng chuqr joyi 1637 m. Uzunligi 636 km. Ko'l hududida Gollandiya, Belgiya yoki Shveytsariya bemalol joylashishi mumkin.

ROSSIYADAGI ENG KATTA VULQON

Kluchevskaya Sopka vulqoni bundan 7 ming yil oldin paydo bo'lgan. Balandligi 4900 m ni tashkil etadi. Rossiyada unga tenglasha oladigan vulqon yo'q.



Ermitaj nafaqat Rossiyaning, balki butun dunyoning eng mashhur muzeylaridan biridir. Yiliغا muzeyga 5 mln dan ortiq kishi tashrif buyuradi. Eksponatlar soni esa 3 mln dan ortiq.



AMERIKA QIT'ASI

Maydoni:

42,2 mln km².

Aholisi:

1 mlrd 30 mln kishi.

Davlatlar soni:

35 ta.

Eng uzun daryosi:

Amazonka, uzunligi 6 400 km.

Eng katta oroli:

Grenlandiya, maydoni

2 mln 166 ming 86 km².


Eng baland tog' cho'qqisi:

Akonkagua, balandligi 6967 m.




ODAMXO'R BALIQ

Bu qit'aning hayvonot dunyosi ham o'ziga xos. Xususan, Yer yuzida yagona odamxo'r baliq turi shu qit'ada uchraydi. Shuningdek, uzunligi 10 m dan ortiq bo'lgan anakonda iloni ham Amerika qit'asi-da yashaydi.



ENG UZUN TOG' TIZMASI

Dunyodagi eng uzun tog' tizmasi Amerika qit'asida, aniqrog'i, Janubiy Amerikada joylashgan And tog'lari hisoblanadi. And tog' tizmasining uzunligi 9000 km ga teng.



Bilasizmi, dunyodagi eng katta orol Amerika qit'asida joylashgan! Bu – Grenlandiya oroli boilib, maydoni 2 mln 166 ming 86 km². Grenlandiya Daniya davlatiga tegishli.

KANADA

Dunyo mamlakatlari

58



Joylashgan o'ni: Shimoliy Amerikaning shimoliy qismi.

Maydoni: 9 min 984 ming 700 km².

Aholisi: 38 mln kishi.


Poytaxti: Ottawa (aholisi 1 mln).

Milли tarkibi: kanadaliklar (32%), ingizlar (21%), fransuzlar (16%).

Davlat tilli: ingliz va fransuz tillari.

Dini: Christian (74%).

Pul birligi: Kanada dollari.



DUNYODAGI ENG UZUN KO'CHA

Kanadada dunyodagi eng uzun ko'cha joylashgan. Uning nomi Yang-strit (Yonge Street) bo'lib, u Ontario shahridagi qirg'oqlardan boshlanib, shimal tomon yo'nalgan. Ko'channing uzunligi rekord – 2000 km ga yaqin.

YEVROPAGA TENG YERI BOR DAVLAT

Bilasizmi, maydoni jihatidan duniyoda ikkinchi o'rinda turuchi Kanada hududi deyarli, Yevropa qit' asicha keladi. Avstraliya materigidan esa katta hisoblanadi.



Eng ommabop sport turilardan biri bo'lgan shaybali xokkey XIX asrning 60-yillarida Kanadada paydo bo'lgan.



Bilasizmi, mamlakatning aholisini eng ko'p bo'lgan Toronto shahri xavfsiz shaharlar 20 taligida 8-o'rindan joy olgan.



AQSH

Joylashgan o'rni:

Shimoliy Amerika.

Maydoni:

9 mln 519 ming 400 km².

Aholisi:

332,4 mln kishi.

Poytaxti:

Vashington (aholisi 633 ming).

Milliy tarkibi:

Yevropadan kelgan amerikaliklar (oqtanlilar) (78,1%), lotin amerikaliklar (16,7%), qoratanlilar (13,7%).

Davlat tili:

ingлиз tili (amerika lahjasi).

Dini:

xristian (69,2%).

Pul birligi:

AQSH dollari.



GRAND-KANYON


AQSHning eng qadimiy bog'laridan biri Arizona shtatida joylashgan Grand-Kanyondir. Uning asosiy boyligi Kolorado daryosidagi daralar hisoblanadi. Uzunligi 446 km ni, chuqurligi esa 1857 m ni tashkil etadi. Dara, taxminan, 10 mln yil avval shakllangan.





ROSHMOR TOG'I

Roshmor tog'ida joylashgan, prezidentlar – Jorj Vashington, Tomas Jefferson, Teodor Ruzvelt va Avraam Linkolnlarning 18,6 m li haykali AQSHning asosiy yodgorliklaridan biri.



Dunyoning eng mashhur sharsharasi Niagara daryosida joylashgan. Daryo Amerika va Kanada chegarasidagi Eri va Ontario ko'llarini bog'lab tura-di. Sharsharaning balandligi 53 m atrofida, kengligi 792 m. Niagara sharsharasi o'ziga xosligi va betakrorligi bilan dunyo ahlining e'tiboriga tushgan.



MEKSİKA

Joylashgan o'rni:

Shimoliy Amerikaning janubiy qismi.

Maydoni:

1 mln 972 ming 550 km².

Aholisi:

134,2 mln kishi.

Poytaxti:

Mexiko (aholisi 21,2 mln).

Milliy tarkibi:

ispanzabon meksikanlar (90%).

Davlat tili:


ispan tili.

Dini:

xristian (97%).


Pul birligi:

Meksika pesosi.



TEOTIUAKANDAGI OY PIRAMIDASI

Teotihuacan Oy piramidasi Meksikaning eng mashhur joylaridan biridir. Mazkur piramida eramizning 200–450-yillari oraliq'ida barpo etilgan. Qurilma zinasi qabristonga olib boradi, uning cho'qqisida esa mahalliy xalq sig'inadigan iloh sharafiga diniy marosimlar uchun foydalilanilgan maydonchaga joylashgan.



KUCHLI 20 TALIK A'ZOSI

Meksika dunyoning eng rivojlangan kuchli yigirmatalik davlatlari ro'yxatidan joy olgan. Mazkur mamlakat qirg'oqlarini Tinch va Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.



Chichenitsadagi Kukulkan piramidasi mamlakatning diqqatga sazovor joylaridadir. Uni 4 tomonidan 91 ta zina o'rabi turadi, agar yuqoridagi platformasi bilan hisoblasak, zinalar soni 364 ta.



ARGENTINA

Joylashgan o'rni:

Janubiy Amerikaning janubi-sharqiy qismi.

Maydoni:

2 mln 780 ming 400 km².

Aholisi:

45,5 mln kishi.

Poytaxti:

Buenos-Ayres (aholisi 14,6 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, ispanlar.

Davlat tili:

ispak tili.

Dini:


xristian.

Pul birligi:

Argentina pesosi.

POYTAXT SHAHAR

Buenos-Ayres shahriga 1536-yilda ispan bosqinchilarining sardori Pedro Mendos tomonidan asos solingan. Shahar 1880-yildan buyon Argentina poytaxti sanaladi.



ESEYSA AEROPORTI

Poytaxt Buenos-Ayres shahridagi xalqaro Eseysa aeroporti Amerika qit'asi havo yo'llarining markazlaridan biridir. Mazkur aeroport dunyodagi eng gavjum qo'nalg'alardan biri hisoblanadi.



Argentina bug'doy yetishirish bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan. Shuningdek, bu mamlakat dunyoning eng janubiy davlatlaridan biri hamdir.



BRAZILIYA

Joylashgan o'rni:

Janubiy Amerikaning markaziy va sharqi qismi.

Maydoni:

8 mln 515 ming 800 km².

Aholisi:

215,7 mln kishi.

Poytaxti:

Brazilia (aholisi 3 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, yevropalik portugallar va ispanlar.

Davlat tili:

portugal tili.

Dini:

xristian (87%).

Pul birligi:

Braziliya riali.




BRAZILIYADA CHUCHUK SUVDAN MUAMMO YO'Q

Braziliya chuchuk suv zaxiralari eng ko'p bo'lgan davlatlaridan biridir. Mamlakat hududining 1/3 qismini Amazonka daryosi havzasi tashkil etadi. Aynan Amazonkada mavjud chuchuk suv hajmi dunyo zaxiralaringning 1/5 qismiga to'g'ri kelar ekan.

ISO MASIH HAYKALI

Braziliya davlatining ramzi – Rio-de-Janeyrodagi balandligi 710 m li Korkovado tepaligida joylashgan 38 m li Iso Masih haykalidir.



Braziliya dunyo aholisining sevimli ichimligi qahvaning 1/3 qismini yetishtiradi. Shakar ishlab chiqarish va apelsin yetishtirish bo'yicha jahon yetakchilari dandir. Shuningdek, dunyoning soya eksport qiluvchi yetakchi davlati hisoblanadi.



CHILI

Joylashgan o'rni:

Janubiy Amerikaning janubiy-g'arbiy qismi.

Maydoni:

756 ming 950 km².

Aholisi:

19,2 mln kishi.

Poytaxti:

Santyago (aholisi 6,7 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

yevropaliklar avlodi (49%), metislar (35%).

Davlat tili:


ispak tili.

Dini:

xristian (83,2%).

Pul birligi:

Chili pesosi.



ATAKAMA CHO'LI

Chili shimolida dunyodagi qurg'oqchil joylardan biri – Atakama cho'li joylashgan. Atakama Janubiy Amerikaning eng katta sahrosi hisoblanadi.

UZOQ MASOFAGA CHO'ZILGAN DAVLAT

Chilining maydoni uncha katta bo'lmasa-da, shimoldan janubga qarab uzoq masofaga cho'zilgan. Aniqrog'i, 4300 km ga. Yer maydoni katta mamlakatlar ham bunday sifatga ega emas.



Chili hududida o'rta asrda ilk davlatlar vujudga kela boshlagan. Ulardan eng kuchliisi Inklar davlati bo'lgan. Bu davlat XII asrda tashkil topgan. Inklar qo'shni qabilalarni zabit etganlar. Davlat tepasida hukmdor – Oliy Inka (Sapa Inka) turardi. Oliy Inkaning yaqin qarindoshi bo'lgan erkaklar o'zlarini „Quyosh o'g'illari“ deb hisoblaganlar.

AFRIKA QIT'ASI

Maydoni:

30,3 mln km².

Aholisi:

1 mlrd 363 mln kishi.

Davlatlar soni:

57 ta.

Eng uzun daryosi:

Nil, uzunligi 6 650 km.

Eng katta oroli:

Madagaskar, maydoni

595,8 ming km².

Eng baland tog' cho'qqisi:

Klimanjaro, balandligi 5 895 m.

YEROSTI SUV OMBORI

Olimlarning aniqlashlaricha, eng qurg'oqchil bo'lgan Afrika yirik yerosti suv ombori ustida joylashgan. Aniqlangan suv omborida mavjud bo'lgan suvning miqdori Yer ustidagi suv miqdoridan 100 marta ko'pdir. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda qit'ada 300 mln dan ortiq odam ichimlik suvi taqchilligidan jabr ko'rmoqda.



AFRIKADAGI YER YORIG'I

Quruqlikdagi eng yirik Sharqiy Afrika yer yorig'i 3000 km masofaga cho'zilgan bo'-lib, Akoba qo'lting'idan Zambezi daryosining quyi oqimigacha davom etadi. Olimlarning bashoratiga ko'ra, kela-jakda Afrika yer yorilgan joydan ikki-ga ajralib ketadi.



Bilasizmi, dunyodagi eng pa-kana odamlar bo'lmish pigmeylar Afrikada yashaydi. Ularning o'rta-chacha bo'yisi 135 santimetrga teng.

MISR

Joylashgan o'rni:

Afikaning shimoli-sharqiy qismi va Osiyoning Sinay yarimorolisi.

Maydoni:

1 mln 1400 km².

Aholisi:

104 mln ga yaqin.

Poytaxti:

Qohira (aholisi 9,7 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, arablar (75–85 %).

Davlat tili:

arab tili.

Dini:

islom (79–90%).



Pul birligi:


Misr funti.



NIL DARYOSI

Dunyoning eng uzun daryosi – Nil Misr hududidan oqib o'tadi. Daryoning uzunligi 6650 km ga teng. U O'rtayer dengiziga delta (uchburchak shakl) hosil qilib quyiladi. Havzasining maydoni 2 mln 870 ming km². Daryoning bosh irmog'i Sharqiy Afrikadagi Virunga tog'laridan boshlanib, Viktoriya ko'liga kelib quyiladi. Dastlab Katera deb nomlangan daryo mazkur ko'ldan oqib chiqqach, Viktoriya-Nil deb ataladi. So'ng Koga va Albert ko'llaridan o'tgach, dastlab Albert-Nil, so'ngra Bahr ul-Jabal deb ataladi.






SHLYAPALAR

VATANI



Hozir erkag-u ayollar uchun sevimli bo'lgan shlyapalar tarixi qadimgi Misrga borib taqalar ekan. Fir'avnlar (Misr qirollari) „Nemes“ deb ataluvchi boshkiyimlarni kiyib yurishni odat qilishgan. Bu boshkiyim hukmdorlarni chang-to'zondan himoyalash barobarida qirol oilasining o'ziga xos tim-soli hisoblangan.



Misr piramidalari haqida eshitganmisiz? Ular 4 ming yil avval qurilgan, deb taxmin qilinadi.

JAR

Joylashgan o'rni:

Afikaning janubiy.

Maydoni:

1 mln 219 ming 900 km².

Aholisi:

60 mln ga yaqin.

Poytaxti:

Pretoriya (aholisi 2,5 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

zuluslar (38,5%), sotolar (27,5%)
kosalar (11,6%).

Davlat tili:


ingliz, veneda, zulu va boshqa
tillar.

Dini:

xristian (80%).

Pul birligi:

rand.



JAHON FUTBOLI AFRIKADA


Afrika qit'asidagi futbol bo'yicha birinchi jahon championati 2010-yilda Janubiy Afrika Respublikasida o'tkazilgan. Mazkur birinchilikda Ispaniya terma jamoasi champion bo'lgan edi.

RIVOJLANGAN MAMILAKAT

JAR Afrika qit'asining eng boy davlatidir. Dunyoning rivojlangan 20 talik davlatlari safiga Afrikadan faqat shu mamlakat kira olgan.



JAR tog'lari nihoyatda tarovatli. Drakon tog'laridagi Tabana-Ntlenyana cho'qqisi (3482 m) Janubiy Afrikadagi eng baland nuqtadir. Katta Karru soyligidan janubda Kap tog'lari (balandligi 2326 m gacha) mavjud. Tog'lar iqlimi, asosan, tropik va subtropik.



MAROKASH

Joylashgan o'rni:

Afrikaning shimoli-g'arbiy qismi.

Maydoni:

446,5 ming km².

Aholisi:

37,2 mln kishi.

Poytaxti:

Rabot (aholisi 1,7 mln).

Milliy tarkibi:

arablar (60%), barbarlar (40 %).

Davlat tili:



arab va fransuz tillari.

Dini:

islom (99%).

Pul birligi:

Marokash dirhami.



HASAN MINORASI

Marokash poytaxti Rabot shahridagi Hasan minorasi mamlakatning eng e'tiborga sazovor me'moriy obidalari-dandir. Minorani ko'rish uchun ko'plab turistlar tashrif buyuradi. Uning balandligi 69 m ga teng.

DUNYODAGI ENG BALAND MASJID

Marokash podshohligida islom me'morchiligining yusak namunalari qad rostlagan. Jumladan, mamlakatning yirik – „Hasan II“ masjidi jahondagi eng baland diniy inshoot sanaladi. Masjid minorasining balandligi 210 m ni tashkil etadi.



Marokashning Fese shahrida dunyodagi eng qadimgi universitet tashkil etilgan. Ushbu ilk oliyogoh 859-yilda vujudga kelgan.



MADAGASKAR

Joylashgan o'rni:

Afrikaning janubi-sharqiy sohili yaqinidagi kichik orol.

Maydoni:

587 ming km².

Aholisi:

28,2 mln kishi.

Poytaxti:

Antananarivu (aholisi 2,6 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

merinalar (26,2%), betsileular (12,1%), simixetilar (7,3%), betsimisarakalar (14,9%).

Davlat tili:

malagas va fransuz tillari.

Dini:


mahalliy dinlar (52%), xristian (41%), islom (7%).

Pul birligi:

ariari.

BAOBAB DARAXTI

Madagaskarda eng uzoq umr ko'radigan baobab daraxtini uch-ratish mumkin. Baobabning bo'yи 18–25 m bo'lsa-da, shox-shabba-si katta (aylanasi 45 m²) maydonni egallaydi. Tanasining diametri 4–10 m bo'lib, 4000–5000 yil umr ko'radi.



LIMURLAR VATANI

Madagaskar oroli bir-biridan g'aroyib jonivorlarning vatani sanaladi. Ulardan biri Primatlar oilasiga kiruvchi limurlardir. Bu jonivorlarni Madagaskar o'rmonlarida ko'plab uchratish mumkin.



Hamma tarafdan okean suvlari bilan o'rالgan eng katta orol – Madagaskar ko'п yillar ilgari Afrika materigida bo'lган. Ya'ni orol bo'lмаган. Keyinchalik materikdan ajralib ketган.



JAZOIR

Joylashgan o'rni:

Shimoli-g'arbiy Afrika.

Maydoni:

2 mln 381 ming 700 km².

Aholisi:

44,4 mln kishi.

Poytaxti:

Jazoir (aholisi 2,4 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

asosan, arablar va barbarlar (99%).

Davlat tili:



arab va barbar tillari.

Dini:

islom (99%).

Pul birligi:

Jazoir dinori.




SAHRODAGI DAVLAT



Mamlakat hududining katta qismini Sahroyi Kabir egallagan. Janubiy Jazoir yoki Jazoir Sahroyi Kabiri mamlakat maydonining 2 mln km² ga teng qismini o'z ichiga oladi. Sahroyi Kabirda 500 m balandlikdagi tekis vohalar uchraydi.

DUNYODAGI ENG KATTA VULQON

Agar siz zilzilalardan qo'rq-sangiz, Yaponiyaga aslo bora ko'r mang. Yaxshisi, Jazoирга sayohat qiling. Ushbu mamlakat sayyoramizda zilzilalar eng kam sodir bo'ladigan mamlakat sanaladi.



Mamlakat poytaxti Jazoир shahri Jazoир qo'llig'i bo'y lab 15 km ga cho'zilgan. Jazoир shahri mamlakatning eng katta shahri bo'lib, maydoni 273 km² ni tashkil etadi. Shahar 935-yilda barbar amiri Bolloggin ibn Ziri tomonidan bунyod etilgan.



NIGERIYA

Joylashgan o'rni:

G'arbiy Afrika.

Maydoni:

923,8 ming km².

Aholisi:

210 mln ga yaqin.

Poytaxti:

Abuja (aholisi 1,4 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

xausalar (21%), yorubalar (21%), igrolar (18%), fulbelar (11%).

Davlat tili:

ingлиз, yoruba va igro tillari.

Dini:

islom (50%), xristian(40%).


Pul birligi:

nayra.




RIVOJLANGAN DAVLAT

Nigeriya yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo hajmi jihatidan Afrikada 2-o'rinda (JARdan ke-yin) turadi. Yalpi ichki mahsulotning yarmi sanoatda, taxminan, 30 foizi qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqariladi. Nigeriya dunyoda neft eksport qiluvchi 10 ta yirik mamlakat qatoriga kiradi, neft qazib olish sohasida Afrikada birinchi o'tinni egallaydi.



MILLIONER SHAHAR

Nigeriyaning eng yirik va aholisi ko'p shahri Lagosdir. Atrofidagi shaharlar bilan birga bu yerda 21 mln aholi yashaydi. Maydoni 1000 km². Lagos Afrikaning eng aholisi ko'p shaharlaridan biri hisoblanadi.



Hozirgi Nigeriya hududida dastlabki aholi manzilgohlari Paleolit davrida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 4–3-mingyllikdayoq bu joylarda silliqlangan va sayqallangan toshboltalar va sopol idishilar yasalgani ma'lum. Milodiy VIII–X asrlarda Nigeriya hududida xausa xalqining shahardavlatlari (Kano, Katsina, Zaria va boshqalar) vujudga kelgan.

LIVIYA

Joylashgan o'rni:

Shimoliy Afrika.

Maydoni:

1 mln 759 ming 500 km².

Aholisi:

7,2 mln kishi.

Poytaxti:

Tripoli (aholisi 1,8 mln dan ortiq).

Milliy tarkibi:

arablar (57,2%), beduinlar (13,8%).

Davlat tili:

arab tili.

Dini:

Islom (95%).


Pul birligi:

Liviya dinori.




TRIPOLI SHAHRI

Tripoli mamlakatning poytaxti va eng yirik shahridir. Shahar 1951-yildan beri Livyaning ma'muriy markazi bo'lib kelmoqda. Shahar O'rtayer dengizi bo'yida joylashgan. Maydoni 400 km² ni tashkil etadi. Shuningdek, Tripoli Afrikaning shimoliy shaharlardan biri. Liviyadagi ko'plab sanoat korxonalari, ishlab chiqarish obyektlari shu yerda joylashgan.



QURG' OQCHIL MAMLAKAT

Liviya Yer yuzidagi eng qurg'oqchil mamlakat hisoblanadi. Mamlakat maydonining 99 foizini sahrolar tashkil qiladi.



Liviya hududida odamlar qadimdan yashab keladi. Ming yillar davomida ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan. Miloddan avvalgi 1-mingyillikning 1-yarmida Liviya g'arbida Leptis-Magna, Sabrata va Edegan Finikiyi manzilgohlari vujudga kelgan. Bular mamlakatning eng qadimgi hududlari hisoblanadi.



AVSTRALIYA VA OKEANIYA

Maydoni:

8 mln 510 ming km².

Aholisi:

69 mln ga yaqin.

Davlatlar soni:

17 ta.

Eng uzun daryosi:

Murrey, Darling bilan 3 720 km.

Eng katta oroli:

Yangi Gvineya, maydoni
786 ming km².

Eng baland cho'qqisi:

Jaya, balandligi 4 884 metr.

KATTA DAVLAT

Bilasizmi, Avstraliya qit'asining 91,7 foizini Avstraliya davlati tashkil etadi. Mamlakat dunyoning eng katta davlatlaridan biri bo'lib, bu borada oltinchi o'rinni egallaydi.

Avstraliya Yer yuzidagi eng kichik, eng quruq materik, g'aroyib hayvonlar vatani, sayyoramizning yaxlit noyob qo'riqxonasidir. Materiko'tasidan Janubiy tropik chizig'i o'tadi, shuningdek, evkalipt daraxti vatani (bo'yи 2 m dan 150 m gacha) hisoblanadi.




7000 TA OROL

Tinch okeanining markazi va g'arbiy qismlarida sochilib yotgan katta-kichik orollar Okeaniya deb ataladi. Egallagan maydoniga nisbatan quruqlik atigi 2 foizini tashkil etganligi uchun ham Okeaniya nomini olgan. Okeaniya o'z tarkibiga 7000 dan ortiq orolni birlashtiradi. Orollarning umumiy maydoni $1,3 \text{ mln km}^2$.



Birinchi bo'lib Avstraliya quruqligiga qadam qo'ygan kishi gollandiyalik Villem Yanszondir. U 1606-yilda Keyp-York yarimorolini tekshirdi va materikka Yangi Gollandiya deb nom berdi.



AVSTRALIYA

Joylashgan o'rni:

Avstraliya qit'asi va Tasmaniya orollari.

Maydoni:

7 mln 692 ming km².

Aholisi:

25,7 mln kishi.

Poytaxti:

Kanberra (aholisi 400 mingdan ortiq).

Milliy tarkibi:

asli Britaniyadan bo'lgan avstraliyaliklar (82%).

Davlat tili:

ingлиз tili.

Dini:

xristian (71%).

Pul birligi:

Avstraliya dollari.



BITTA ODAMGA IKKITA KENGURU

25 million aholiga 57 million kenguru. Avstraliyaning haqiqiy „xo'jayin“larini angladingizmi? Qish faslidagi bu jonzotlarni shasharda ham uchratish mumkin. U yerdan yegulik va boshpvana izlashadi.



SERJILO OPERA UYI

Avstraliyaning ramzi Sidneydagagi Opera uyidir. Biningning balandligi 67 m, uzunligi 185 m.

Muhandislarning hisob-kitoblariga ko'ra, vazni 161000 tonnani, maydoni esa 2,2 gek-tarni tashkil qiladi.



Avstraliya davlatida pushtirang ko'l mavjud. Uning nomi Xiller. Shu kunga qadar olimilar suvning bunday rangda bo'lish sababini aniqlay olishmagan. Dunyodagi boshqa ko'llar tubidagi suvo'tlari sabab ana shu rangda. Biroq Xillerning tubi faqatgina toshlardan iborat.



YANGI ZELANDIYA

Joylashgan o'rni:

Tinch okeanining janubi-g'arbiy qismi.

Maydoni:

268,7 ming km².

Aholisi:

4 mln 848 ming kishi.

Poytaxti:

Vellington (aholisi 412,5 ming-dan ortiq).

Milliy tarkibi:

yevropaliklar avlodlari (67,6%), maorilar (14,6%), osiyoliklar (9,2%).

Davlat tili:

ingлиз va maori tillari.

Dini:



xristian (48%), hech qanday dingga mansub bo'lganlar (42%).

Pul birligi:

Yangi Zelandiya dollari.

TAROVATLI OROL

Yangi Zelandyaga tashrif bu-yurgan sayyoohlар Taupo orolini juda yaxshi ko'rishadi. Ushbu orol 27 000 yil ilgari sodir bo'lgan vulqon otilishi natijasida suv bug'laridan paydo bo'lgan.





SUVGA YONDOSH AEROPORT

Mamlakat poytaxti Wellington aeroportining uchish-qo'nish yo'lagi shaffof-moviy suv bilan o'ralgan kichkina quruqlikdan iborat. Samolyotni chiziq chegarasidan chiqmasdan qo'ndirish naqadar mushkul ekanini tasavvur qilish qiyin emas.



Yangi Zelandiyaning Oklend shahri dunyodagi yashash uchun eng qulay va xavfsiz shahar hisoblanadi. Shuningdek, shahar ekologik jihatdan ham nihoyatda toza.



FIJI

Joylashgan o'rni:

Tinch okeanining janubiy qismi.

Maydoni:

18,3 ming km².

Aholisi:

919 ming kishi.

Poytaxti:

Suva (aholisi 200 mingdan ortiq).

Milliy tarkibi:

fijiliklar (57,2%), fiji-hindular (37,5%).

Davlat tili:


ingлиз, fiji va hind tillari.

Dini:

xristian (52%), induizm (38%).

Pul birligi:

Fiji dollari.



TOMANIVI TOG'I

Fijining yirik orollari reliefi, balandligi 1000 m dan yuqori tog' tizmalari bilan ajralgan platolardan iborat. Eng baland cho'qqisi 1322 m bo'lgan Tomani-vidir.

332 OROLDAN IBORAT MAMLAKAT

Bilasizmi, Fiji davlati 332 ta orolni o'z ichiga oladi. Ammo aholining 87 foizi bor-yo'g'i ikkita orolda yashaydi.



Fiji davlatining maydoni kichkina, aholisi kam bo'lsa ham, naqd 28 ta aeroporti bor.



„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

Tuzuvchi:
Oybek Xaydarov

DUNYO MAMLAKATLARI

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Abdurahmon Jo'rayev
Quvondiq Shomurotov
Malika Kamolova
O'g'iloy Qurbonova







Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
11.02.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 70x90¹/₁₆.
Ofset qog'oz. „Century Gothic“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,02. Adadi 6000 (3-zavod). Sharhnomha № 103-19.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„Ziyo nashr“ MChJ da chop etildi.
Toshkent shahri, Bektemir tumani, Husayn Boyqaro ko'chasi, 3-uy.

• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI •

TURKUMIDA CHOP ETILGAN KITOBLAR



ZIYO NASHR



[fb.com/ziyo.nashr](https://www.facebook.com/ziyonashr)



ziyonashr@mail.ru



YANGI
KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI
ONLAYN
XARID
QILISH UCHUN
QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-5883-2-5



9 789943 588325